



MUHANDISLIK VA TEXNIKA YO'NALISHI BO'YICHA INGLIZ TILIDA TERMINOLOGIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH METODLARI.

Rejapova Dilduzaxon Karimjonovna

Andijon 1-son politexnikum

Ingliz tili fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17835971>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 28-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 30-noyabr 2025 yil

KEYWORDS

terminologik kompetensiya, muhandislik ingliz tili, texnikum ta'limi, CLIL, leksik yondashuv, kasbiy muloqot, texnik terminlar, loyiha asosida o'qitish.

ABSTRACT

Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarining globallasuvi, texnik hujjatlar, standartlar va xorijiy texnologiyalarning keng joriy etilishi texnik mutaxassislarning ingliz tilidagi termin va kasbiy leksikani chuqur bilishini talab etadi. Maqolada muhandislik terminologiyasini o'rgatishda CLIL, leksik yondashuv, problemaga yo'naltirilgan ta'lim, loyiha asosida o'qitish, multimodal resurslardan foydalanish hamda semantik xaritalar texnologiyalarining o'quvchilar kompetensiyasiga ta'siri nazariy va amaliy misollar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, texnikum sharoitida terminologik lug'at boyligini oshirish uchun moslashtirilgan topshiriq turlari, modulli o'qitish elementlari va real ishlab chiqarish muhitiga yaqinlashtirilgan o'quv materiallari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari mazkur metodlarning talabalarda kasbiy ingliz tilini samarali o'zlashtirish, texnik matnlarni tahlil qilish va kasbiy muloqot olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishini ko'rsatadi.

Introduction. Hozirgi kunda ta'lim tizimining samaradorligi, avvalo, uning jamiyat tomonidan qo'yilgan ijtimoiy talablarni qanday darajada bajara olishiga bog'liq bo'lib, bu talablar iqtisodiyotning tezkor rivojlanishi fonida texnikum va kasb-hunar ta'limi muassasalariga yangicha vazifalar yuklamoqda. Bugungi mehnat bozorida, masalan, ingliz tiliga doir ko'nikmalar oddiy qo'shimcha ma'lumot emas, balki ishga qabul qilish jarayonida asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda. Shuning uchun texnikum o'quv dasturlarida ingliz tilini o'qitishning sifatini oshirish va unga yangicha metodik yondashuvlar joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Ishlab chiqarish jarayonida xalqaro standartlarning joriy etilishi, texnik hujjat va chizmalar bilan ishlashda xorijiy til -xususan, ingliz tilining roli sezilarli darajada ortib bormoqda. Bunday sharoitda texnikum talabalari nafaqat umumiy ingliz tilini, balki kasbiy yo'nalishga oid terminologik kompetensiyani egallashi zarur. Terminologik kompetensiya -bu talabaning muhandislik va texnika sohasiga oid terminlarni to'g'ri anglash, ularni kontekstda qo'llash, texnik matnlarni tahlil qilish hamda kasbiy muloqotda faol ishlata olish qobiliyatidir. Mazkur kompetensiya texnik mutaxassisning

professional tayyorgarligida muhim komponent hisoblanadi, chunki har qanday texnologik yo'riqnoma, instruktsiya, dasturiy ta'minot interfeysi, chizma yoki standartning asosiy qismi aynan terminlardan tashkil topadi.

Materials and methods. Chet tillarini o'qitish metodologiyasi ham tabiiy ravishda yangilanib bormoqda. Metodologiya -bu chet tilini o'rgatish jarayonini tashkil etishda nazariy qarashlar, konsepsiyalar, tamoyillar hamda ularga mos didaktik vositalar tizimi bo'lib, uning mazmuni ilmiy bilimlarning yaxlitligi, bilimning kelib chiqishi, uni egallash yo'llari hamda amaliy qo'llanish mexanizmlariga tayanadi. Mazkur sohada olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, texnologik yangilanishlar va kompetensiyaviy yondashuvning dolzarblashuvi ingliz tilini o'qitish metodikasining ko'lamini kengaytirib, uning tarkibiy qismlarini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda.

Mutaxassislar chet tilini o'qitishda qaysi metod eng samarali ekani, ayniqsa texnikum sharoitida amaliy natija berishi mumkinligi borasidagi ilmiy munozaralarni davom ettirmoqda. Zero, texnik sohalarda o'qiyotgan talabalarga ingliz tili nafaqat umumiy muloqot vositasi, balki kasbiy terminologiyani egallash, texnik hujjatlar bilan ishlash, zamonaviy texnologiyalarni tushunish va xalqaro mehnat bozoriga moslashish uchun zarur kommunikativ resurs sifatida qaralmoqda. Shu sababli, texnikum o'quvchilari uchun ingliz tilini o'qitishda CLIL, ESP, loyiha asosida ta'lim, interfaol metodlar kabi yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy metodlar orasida CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi terminologik kompetensiyani shakllantirishda eng samarali usullardan biri sifatida e'tirof etiladi. CLIL texnologiyasiga ko'ra, talabalarga ingliz tili faqat til sifatida emas, balki texnik mazmunga ega bo'lgan real o'quv materiallari vositasida o'rgatiladi. Masalan, "Welding process", "Electrical circuits", "Technical safety rules" kabi mavzular ingliz tilida o'tilsa, talaba esa shu jarayonda nafaqat grammatika, balki mazkur sohalarning terminlar tizimini ham to'g'ridan-to'g'ri amaliyot bilan bog'lab o'zlashtiradi. CLILning texnikum sharoitidagi ustunligi shundaki, u til o'rganishni kasbiy tayyorgarlik jarayoni bilan uyg'unlashtirib, terminlarni tabiiy kontekstda o'rgatadi va ularning semantikasini chuqur anglatadi.

Result and discussions. Terminologiyani o'rgatishda leksik yondashuv ham katta ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvga ko'ra, tilning asosiy birligi grammatik qoidalar emas, balki "word chunks", ya'ni tayyor leksik birliklar hisoblanadi. Texnik ingliz tilida bunday birliklar juda ko'p: *power transmission system, thermal conductivity, preventive maintenance, load capacity* kabi iboralar kasbiy muloqotning asosiy tarkibiy qismlaridir. O'qituvchi bunday bog'lanmalarni matnlar, grafik materiallar, videodarslar va laboratoriya jarayonlari bilan integratsiyalangan holda o'rgatsa, talaba terminlarni amaliy faoliyatga uzviy bog'lagan holda eslab qoladi.

Texnikumlarda muammoga yo'naltirilgan ta'lim ham terminologik kompetensiyani rivojlantirish uchun samarali metod hisoblanadi. Talabalarga haqiqiy muhandislik vaziyatlariga yaqinlashtirilgan topshiriqlar berilishi, masalan, "Fault detection in electrical system", "Designing a simple pneumatic scheme", "Choosing materials for construction" kabi vazifalar ingliz tilidagi terminlardan faol foydalanishni talab qiladi. Shunday o'quv jarayoni orqali talaba terminlarni izohlash, ularni qo'llash, muammoni ingliz tilida hal qilish va natijalarni taqdim etish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bu esa kommunikativ kompetensiya bilan terminologik kompetensiyaning o'zaro bog'langan holda rivojlanishini ta'minlaydi.

Loyiha asosida o'qitish terminologik lug'at boyligini mustahkamlashning yana bir samarali yo'lidir. Talabalarga texnik loyihalar -masalan, "Smart irrigation system", "Energy-saving lighting model", "Automatic temperature control device" kabi kichik modellar yaratish taklif etilganda, ular loyiha hujjatlarini ingliz tilida tayyorlaydi, diagramma, grafik va eskizlarga terminlarni joylashtiradi.

Natijada terminlar nafaqat yodlanadi, balki ularning texnologik mazmundagi funksional vazifasi ham talaba ongida mustahkamlanadi.

Texnikum sharoitida terminologik kompetensiyani rivojlantirishda multimodal resurslardan - animatsiya, texnik videolar, 3D modellar, simulyatorlar, virtual laboratoriyalar va elektron lug'atlardan foydalanish ham katta samaraga ega. Vizual tasvirlar talabaning terminni nafaqat eshitish va o'qish, balki uning fizik modelini ko'rish orqali chuqurroq anglashiga yordam beradi. Masalan, mexanika terminlarini o'rgatishda kuchlar diagrammalari, mexanizmlar animatsiyasi, texnik jarayonlarning bosqichma-bosqich simulyatsiyasi terminning semantik mazmunini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, Quizlet, Lingvo, Cambridge Dictionary for Engineering kabi raqamli platformalar talabalarga individual o'rganish imkoniyatlarini yaratadi.

Terminologik kompetensiyani shakllantirish jarayonida semantik xaritalar, terminlar o'rtasidagi ierarxik bog'lanmalarni ko'rsatadigan "concept map"lar, kollokatsiyalar jadvali va texnik glossariy yaratish kabi metodlar ham yuqori natija beradi. Talabalar texnik atamalarni guruhlariga ajratish, ularning ma'no munosabatlarini izohlash, sinonim va antonimlarini aniqlash orqali terminlarning konseptual tizimini shakllantiradilar.

Masalan, interfaol metodlarning yorqin ko'rinishlaridan biri bo'lgan loyiha asosidagi ta'lim texnologiyasi talabalar o'zlarining intellektual imkoniyatlari va umumta'limiy ko'nikmalarini qo'llash doirasini aniq namoyish etishlariga xizmat qiladi. Shu bilan birga, talabalarda kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun muhim bo'lgan shaxsiy sifatlar, xususan, chet tilini bilish orqali istalgan ta'lim muhiti bilan uyg'unlasha olish qobiliyati, muloqotga tayyorlik, madaniyatlararo hamkorlikka ochiqlik, shaxsiy tashabbus ko'rsatishga moyillik kabi fazilatlar shakllanadi. Ana shu jihatdan telekommunikatsiya loyihalari texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun chet tilini o'rgatishda samarali vosita sifatida qo'llanilmoqda. Bu texnologiyaning ustunligi interaktiv xususiyatga egaligi, talabalarni faol va ijodiy jarayonga keng jalb qilishi, mazmunning dolzarbligi, muntazam fikr almashinuvi va boshqa omillar bilan belgilanadi.

Conclusion. Muhandislik va texnika yo'nalishidagi ingliz tilidagi terminologik kompetensiyani shakllantirish zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirilganda samarali natija beradi. CLIL, leksik yondashuv, problemaga yo'naltirilgan va loyiha asosida o'qitish, multimodal resurslardan foydalanish, texnik muhitga yaqinlashtirilgan topshiriqlar hamda semantik xaritalar terminlarni anglash va qo'llashni yengillashtiradi. Texnikum talabalari uchun bunday metodlar nafaqat kasbiy ingliz tilini samarali o'zlashtirishga, balki global mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga ham xizmat qiladi.

Bunday loyihalar talabalarining xalqaro hamkorlik jarayonlariga qo'shilish imkoniyatini ham kengaytiradi. Bu esa madaniyatlararo muloqot uchun haqiqiy til muhiti bilan tanishish va bevosita tajriba o'ttirish imkonining mavjudligini anglatadi.

References:

1. Tursunov, A. (2021). Texnikum talabalari uchun ingliz tilida terminologik kompetensiya shakllantirish. O'zbekistonda kasbiy ta'lim, 9(4), 55–64.
2. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.
3. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. Cambridge University Press.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.

5. Flowerdew, J. (2015). Academic Discourse and Global Publishing. Cambridge University Press. (Kasbiy diskurs va texnik terminlar rivoji bilan bog'liq.)



INNOVATIVE
ACADEMY